

## RAQAMLI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIMDA TURGAN O'RNI

**Askarova Shahlo Muhammadaliyevna**

*Farg'ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasida*

**Mamadjonova Shahloxon**

*talaba*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola matni orqali ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya vositalarining joriyetilishi, jahon standartlaridan foydalanishi imkoniyatlari va uning yutuqlari haqida e'tirof etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *axborot texnologiyalari, axborot kommunikatsiyalari, Moodle tizimi, informatika, planshet, smart doskalar, axborot savodxonligi, IT park, masofaviy ta'lim, online, offline, raqamlashtirish.*

Bugungi kunda axborot texnologiyalari hayotimizda shunday o'rin egallab turibdiki, nafaqat kundalini hayotimiz, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarning rivojini ham usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu bilan birga uchinchi tashabbus doirasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar, yoshlarning kompyuter savodxonligi, intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim hozirda shunday tashkillanyaptiki, bunda talaba yoshlar avvalgi zamondagi singari ma'lumotlarni o'rganib, shunchaki yodlab olish bilan cheklanib qolmay, o'zi yangi bilimlarni qidirib topib, mustaqil xulosalar chiqarishmoqda va axborot texnologiyalari bu uchun katta imkoniyat va qiziqishlar eshigini ochmoqda. Shu bois, mamlakatimizda nafaqat oliy ta'lim, balki umumta'lim maskanlarida ham bugun axborot-informatika texnologiyalariga e'tibor kuchayib, chuqurlashtirib o'qitish maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich taahkillanmoqda. Raqamli texnologiya-xo'jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Bu virtual dunyodan real dunyoga obyektlarni qo'shish imkonini beruvchi to'ldirilgan reallik texnologiyasi hisoblanadi.

Raqamli axborot texnologiyalarini ta'limda joriy etilishi bir qancha afzalliklarni yaratadi:

- Xohlagan joyi va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniyati;
- Internetdan axborot olish va undan foydalanish imkoniyati shakllanadi;
- Ta'lim tizimi yangi bosqichga ko'tariladi;
- Vaqt va mablag' keskin tejaladi;
- Yaxshi ish topish imkoniyati yaratiladi.

O'quv jarayonlarida «axborot savodxonligi» yuqori bo'lgan o'quvchilarni bilimlarini o'zlashtirishlari, ma'lumot qidirishlari va yig'ishlari, amalda qo'llashda hech qanday qiyinchilikka duch kelinmaydi. Shu sababli axborot texnologiyalarini

rivojlantirish jamg'armasi va IT park mablag'lari tomonidan axborot texnologiyalari va informatika fani o'qituvchilarining 100 nafariga rag'batlantirishlar tashkillanmoqda. Mamlakatimiz zamonaviy ta'lim tizimiga o'tishi va jahon standartlaridan foydalanishi bugungi kunda ta'limda mavjud muammolarni bartaraf etmoqda va yangicha yondashuvlarga yo'l ochmoqda. 2021-2022-o'quv yilidan boshlab Oliy ta'limda « Moodle» tizimi joriy etilib, bu talabalarni har qanday sharoitda ham masofaviy (online) yoki an'anaviy (offline) o'qish imkoniyatini yaratib, professor, o'qituvchilar uchun ham ancha yengilliklar yaratib, qog'ozbozchilni kamaytirdi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi litsey ayni paytida ikki ming besh yuzdan ziyodroq talaba-yoshlarga tahsil bermoqda. 2021-yilda shunday texnikumlar hududlar bo'yicha 11ta tashkil etilgan. «Raqamli O'zbekiston-2030» dasturini sihlab chiqish jarayoni qizg'in davom etmoqda. Raqamli universitetlar tashkillash maqsadida Coursera (AQSh), EPAM (AQSh, Belarus), OperIn University Malasia (Malasia) tashkilotlari bilan shartnomalar tuzilib, hamkorlik qilishga kelishildi. Bunda ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun ishdan ajralmagan xolda qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatlari yaratildi.

Masofaviy ta'limni tashkillash va uni boshqarish maqsadida TATU masofaviy ta'limni joriy etish konsepsiyasini ishlab chiqdim. Tizim orqali talabalarning darsda to'liq qatnashishi, mavzu materiallarni taqdim etish, o'quv topshiriqlari, nazorat, imtihon va hisobotlarni masofaviy axborot texnologiyalari vositalari orqali amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi. 2021-yilda axborot texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida o'nta fanning Jami 320ta videodarsligi tasvirga olinib, ular o'zbek va rus tillarida tizimga joylandi. Shu bilan birga, ushbu yilda Janubiy Koreyaning Invil tizimini ham ta'lim tizimiga yo'naltirish uchun ularning tajribalari o'rganildi va bir qancha pilot markazlarda ular sinovdan ham o'tkaziladi. Hozir IT sohasi bo'yicha yiliga o'rtacha besh ming kadr yetishib chiqmoqda, ulardan uch ming uch yuz nafari Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga to'g'ri kelmoqda. 2021-yildan boshlab IT sertifikatini mavjud yoshlarning 50% xarajatlarini qoppan berila boshlandi va shu yil [www.uzbekcoders.uz](http://www.uzbekcoders.uz) portali orqali « bir million dasturchi» loyihasi doirasida ta'lim olayotganlardan 200mingdan oshadi. Shulardan 50ming nafari sertifikatlarni qo'lga kiritdi.

Bugungi kunda komputer xonalarining tuzilishi, zamonaviy va qulay jihozlar, komputer, planshet, smart doskalar bilan jihozlanganligi ta'lim olish uchun yana bir undovchi motivatsiyalardan hisoblanadi. Shu sababli talabalar an'anaviy ta'limdan ko'ra axborot kommunikatsiyalariga asoslangan innovatsion ta'limni afzal ko'rishmoqda va bu mamlakatimizda chet el standartlaridan yanada kengroq foydalanish talabini qo'yimoqda.

Aytib o'tkanimizdek, ilgari ta'lim katta hajmli maruza kitoblari orqali o'rganilgan bo'lsa, u o'z navbatida, ta'lim sifati va tezligining uncha yuqori

bo'lmasligiga sabab bo'lgan. Xozirda ta'lim sifatini oshirish maqsadida ta'limni raqamlashtirish boshlangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sultaniyazovich, Y. M., & Muhammadalievna, A. S. (2022). CURRENT STATE OF USE OF INFORMATION RESOURCES OF THE INTERNET IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 169-175.
2. Askarova S.M. THE MUTUAL INFLUENCE OF MUSIC AND SPEECH ON THE AFFECTIVE (EMOTIONAL) SPHERE OF STUDENTS // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). 93-96
3. Аскарова Ш. ПРИНЦИПЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-effektivnosti-informatsionnoy-bezopasnosti> (дата обращения: 15.06.2023).
4. Якубов, М. С., & Аскарова, Ш. М. (2022). Особенности использования информационных ресурсов интернета. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 10-16.
5. Askarova, S. M. (2022). KOMPYUTER VA INTERNETGA QARAMLIKNING YOSH AVLODGA TA'SIRI VA UN DAN TO'G'RI FOYDALANISH OMILLARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 72-77.
6. Askarova, S. M. (2022). TALABALARNING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 1067-1071.
7. Askarova, S. M. (2023). BUTUNJAHON UNTERNET TARMOG'IDAN MAQSADLI FOYDALANISH VA YOSH AVLODDA NETIKET TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 170-172.
8. Аскарова, Ш. М. (2018). ИННОВАЦИОННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ ПРЕДМЕТОВ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 1221-1225).
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-mutual-influence-of-music>
10. <https://president.uz/oz/lists/view/3675>
11. <https://m.daryo.uz/2023/08/13/telefonlar-bizni-halok-qiladimi-yoxud-mobil-telefonlar-haqidagi-beshta-ommabop-mif/>
12. <https://squeezegrowth.com/uz/instagram-marketing-statistics/>  
<https://xs.uz/uz/post/facebook-fojdanuvchilari-soni-25-milliardga-etdi>